

“NAVOIY KON-METALLURGIYA KOMBINATI” AKSIYADORLIK JAMIYATINING IQLIM O‘ZGARISHI SOHASIDAGI SIYOSATI

1. UMUMIY QOIDALAR

Mazkur “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatining (keyingi o‘rinlarda — “NKMK” AJ, Kompaniya) iqlim o‘zgarishi sohasidagi siyosati (keyingi o‘rinlarda — Siyosat) Kompaniyaning iqlim bilan bog‘liq xavflarini boshqarish, issiqxona gazlari chiqindilarini qisqartirish hamda global iqlim o‘zgarishlari sharoitida Kompaniya faoliyatining barqarorligini oshirishga qaratilgan yondashuvlar, tamoyillar va chora-tadbirlarni belgilovchi ichki hujjat hisoblanadi.

Mazkur Siyosat “NKMK” AJning ekologik barqarorlik, energiya samaradorligi va kam uglerodli rivojlanish sohasidagi strategik maqsadlarini aks ettiradi, shuningdek atrof-muhitni muhofaza qilish siyosati, manfaatdor tomonlar bilan o‘zaro hamkorlik siyosati, inson huquqlari bo‘yicha siyosat hamda biologik xilma-xillikni saqlash siyosatida belgilangan maqsadlarning bajarilishini qo‘llab-quvvatlaydi.

Mazkur Siyosat Kompaniyaning barcha tarkibiy bo‘linmalari, rahbarlari va xodimlari uchun majburiy hisoblanadi.

2. STRATEGIK MAQSAD VA VAZIFALAR

Siyosatning maqsadi — barqaror rivojlanish tamoyillari hamda O‘zbekiston Respublikasi milliy ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq ravishda issiqxona gazlari chiqindilarini boshqarish tizimini shakllantirish va Kompaniyaning iqlim o‘zgarishining salbiy ta’sirlariga moslashuvini ta’minlashdan iborat.

Asosiy vazifalar:

issiqxona gazlari (IG) chiqindilari hajmini qisqartirish va ishlab chiqarish jarayonlarining energiya samaradorligini oshirish;

kam uglerodli iqtisodiyot hamda resurslardan samarali foydalanishga asoslangan ishlab chiqarishni rivojlantirishga ko‘maklashish;

iqlim bilan bog‘liq xavf va imkoniyatlarni aniqlash, baholash hamda boshqarish;

ESG hisobotlari doirasida iqlim ko‘rsatkichlarini monitoring qilish va ular bo‘yicha axborotni oshkor etish.

3. QO‘LLASH SOHASI

Mazkur **Siyosat qoidalarini** “NKMK” AJning barcha faoliyat yo‘nalishlariga — loyihalash va qurilishdan tortib, ruda qazib olish va qayta ishlash hamda tayyor mahsulot ishlab chiqarishgacha — shuningdek, Kombinatning operatsion faoliyatida tatbiq etiladi.

4. NORMATIV-HUQUQIY BAZA

“NKMK” AJ quyidagilarga tayanadi:

O‘zbekiston Respublikasi ekologik xavfsizlik, energiya tejash va atrof-muhitni tiklash sohasidagi qonunchiligi;

2015-yilda qabul qilingan Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha Parij bitimi;

BMT Global Shartnomasi (UN Global Compact) tamoyillari;

Iqlim bilan bog‘liq moliyaviy axborotni oshkor etish bo‘yicha TCFD tavsiyalari va Barqaror rivojlanish bo‘yicha axborotni oshkor qilish standartlari (IFRS SDS);

ISO 14064 xalqaro standartlari (issiqxona gazlari chiqindilarini hisobga olish va verifikatsiya qilish) hamda ISO 14001:2015 “Ekologik menejment tizimlari. Talablar va qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnoma” standarti;

Xalqaro konchilik va metallurgiya kengashi (ICMM) tamoyillari bo‘yicha iqlim boshqaruvi va past uglerodli o‘tish;

“NKMK” AJ ichki normativ hujjatlari, jumladan atrof-muhitni muhofaza qilish siyosati, biologik xilma-xillik siyosati va ESG boshqaruviga oid boshqa hujjatlar.

5. ASOSIY TAMOIYILLAR

Shaffoflik va ochiqlik

Kompaniya iqlimga ta’siri va issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar natijalari haqida muntazam axborot berishni ta’minlaydi, jumladan:

Korporativ ESG hisobotida — barqaror rivojlanish hisobotida ma’lumotlarni e’lon qilish;

Rasmiy resurslarda axborotni joylashtirish;

Iqlim bo‘yicha axborot oshkor qilish bo‘yicha milliy va xalqaro tashabbuslarda ishtirok etish.

Mas’uliyat va hisobotlilik

“NKMK” AJ o‘z faoliyatining iqlimga ta’siri uchun mas’uliyatni tan oladi va quyidagilarni bajarishga majbur:

Energiya iste’moli va issiqxona gazlari chiqindilari bilan bog‘liq barcha qonuniy va ichki normalarga rioya qilish;

Energiya boshqaruvi sohasida ichki audit o‘tkazish;

Issiqxona gazlari chiqindilari hajmi bo‘yicha ma’lumotlarning oshkor etilishini ta’minlash.

Issiqxona gazlari chiqindilarini qisqartirish

Kompaniya issiqxona gazlari chiqindilarini oldini olish va kamaytirish bo‘yicha quyidagi choralarni amalga oshiradi:

Texnologik jarayonlarning energiya samaradorligini oshirish;

Qayta tiklanuvchi resurslardan foydalanish;

Toza va past uglerodli texnologiyalarga o‘tish.

Iqlim o‘zgarishiga moslashuv

Kompaniya ob’ektlar va infratuzilmaning ekstremal iqlim hodisalariga bardoshlilikini oshirishga qaratilgan choralarni ishlab chiqadi:

Ishlab chiqarish ob’ektlari uchun zaiflik va xavf tahlilini o‘tkazish;

Iqlim o‘zgarishining salbiy ta’sirlariga moslashuv choralarni rivojlanish va kapital qurilish rejalari tarkibiga kiritish;

Korporativ boshqaruv (ESG) doirasida iqlim xavflarini boshqarish tizimini joriy etish.

Manfaatdor tomonlarni jalb etish

“NKMK” AJ iqlim masalalari bo‘yicha ochiq muloqot asosida hamkorlikni yo‘lga qo‘yadi: Fikrlarni aniqlash maqsadida davlat organlari, mahalliy jamoatlar va investorlar bilan o‘zaro aloqada bo‘lish;

Iqlim xavflarini baholash uchun ilmiy va ekspert tashkilotlari bilan hamkorlik qilish.

Innovatsiyalar va ilmiy hamkorlik

Kompaniya resurslardan samarali foydalanishni oshirish va issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirishga xizmat qiladigan innovatsiyalar va texnologiyalarni joriy etishni rag‘batlantiradi.

6. AMALGA OSHIRISH MEXANIZMLARI

Mazkur Siyosatni amalga oshirish uchun “NKMK” AJ quyidagilarni joriy etadi:

GHG Protocol va ISO 14064 metodologiyalariga muvofiq issiqxona gazlari chiqindilarini monitoring qilish va hisobga olish tizimi;

Energiya samaradorligi va uskunalarni modernizatsiya qilish dasturlari;

Iqlim auditi, shu jumladan, uchinchi tomonlar tomonidan tasdiqlash (verifikatsiya);
Issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish bo'yicha korporativ rejalashtirish, shu jumladan maqsadlarni belgilash;

Xalqaro standartlarga (shu jumladan, GRI, SASB va keyinchalik IFRS SDS) muvofiq ESG hisobotlarida axborot oshkor etish.

7. MAS'ULIYAT VA NAZORAT

“NKMK” AJ rahbariyati mazkur Siyosat qoidalarini joriy etish va bajarish, shu jumladan zarur resurslarni taqdim etish hamda harakatlarni muvofiqlashtirish uchun javobgardir.

Siyosatning nazorati va amalga oshirilishi quyidagi bo'limlar tomonidan ta'minlanadi:

Barqaror rivojlanish va atrof-muhit bo'limi (ESG);

Atrof-muhitni muhofaza qilish bo'limi;

Bosh energetik bo'limi;

Transport bo'limi;

Texnologik bo'lim.

Siyosatning bajarilishi natijalari yillik korporativ va ESG hisobotlariga kiritiladi.

8. YAKUNIY QOIDALAR

Mazkur Siyosat muntazam ravishda qayta ko'rib chiqiladi (kamida har uch yilda bir marta), shuningdek quyidagi hollarda:

Tegishli qonunchilikdagi o'zgarishlar yuz berganda;

Kompaniyaning operatsion faoliyatida sezilarli o'zgarishlar bo'lganda;

Eng yaxshi amaliyotlarga muvofiqlikni ta'minlash maqsadida.

Mazkur Siyosat “NKMK” AJ Boshqaruv Raisi – bosh direktorining buyrug'i bilan tasdiqlangan kundan boshlab kuchga kiradi.

Agar Siyosatning ayrim bandlari har qanday sabab bilan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan Kompaniya uchun majburiy talablar (imperativ normalar) bilan ziddiyatga kirsam, ushbu bandlar qonuniy kuchini yo'qotadi va Siyosatga tegishli o'zgartirishlar kiritilmaguncha, Kompaniya amaldagi qonunchilik normalari asosida harakat qiladi.

Siyosatni yangilash nazorati “NKMK” AJ Transformatsiya boshqarmasining Barqaror rivojlanish va atrof-muhit (ESG) bo'limiga yuklatiladi.